

## YOSHLAR IJODIDA AYOL OBRAZINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kamola Egamberdiyeva,***filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666541>

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot zamonaviy yosh ijodkorlar asarlarida ayol obrazining o'ziga xos badiiy-estetik va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Yoshlar ijodida ayol obrazi an'anaviy talqinlardan farqli ravishda shaxs erkinligi, ichki kechinmalar, individual ruhiy holat va ijtimoiy faollik bilan uyg'un holda aks etadi. Tadqiqotda ayol obrazining zamonaviy tafakkur mahsuli sifatidagi yangicha qirralari, badiiy xarakter yaratishdagi o'rni, ramziy va psixologik talqini yoritiladi. Shuningdek, yosh ijodkorlar asarlarida ayol obrazining gender yondashuv asosida ifodalanishi va uning estetik funksiyasi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar ijodi, ayol obrazi, zamonaviy adabiyot, badiiy xarakter, psixologik talqin, gender yondashuv, estetik yangilanish.

**Annotation.** This study explores the distinctive artistic, aesthetic, and socio-ideological features of the female image in the works of young contemporary writers. In youth literature, the female image is portrayed not only through traditional roles but also as an embodiment of personal freedom, inner emotional experience, individuality, and social activity. The research highlights innovative interpretations of female characters as products of modern literary thinking, focusing on their psychological depth, symbolic meaning, and role in artistic characterization. Particular attention is paid to gender-based approaches and the aesthetic functions of the female image in the creative works of young authors.

**Keywords:** youth literature, female image, modern literature, artistic character, psychological interpretation, gender approach, aesthetic innovation.

**Аннотация.** Настоящее исследование посвящено анализу своеобразных художественно-эстетических и социально-идейных характеристик образа женщины в творчестве современных молодых авторов. В произведениях молодежной литературы женский образ выходит за рамки традиционных представлений и предстает как носитель личной свободы, внутреннего мира, индивидуального самосознания и социальной активности. В работе рассматриваются новые художественные подходы к созданию женских образов, их психологическая и символическая интерпретация, а также гендерный аспект в современном литературном процессе.

**Ключевые слова:** творчество молодежи, образ женщины, современная литература, художественный характер, психологизм, гендерный подход, эстетическое обновление.

**Kirish.** Hikoyalardagi g'oyalarning aksariyati ayol erkinligi, tanlov huquqi, ijtimoiy tengsizlik kabi mavzular bilan bog'liq. Adiba jamiyatdagi nosozliklarni ko'rsatishdan cho'chimaydi, ochiq gapiradi va shu orqali kitobxonni o'ylashga, o'z hayotiga boshqacha nigoh bilan qarashga majbur qiladi. Tillaniso nasrining yana bir jihati shundaki, u falsafiy fikrni ham, hissiy tajribani ham o'zida uyg'unlashtira oladi. Yozuvchining asarlari ba'zan isyonkorona ruhda yozilgan bo'lsa, ba'zan esa ichki xotirjamlik va mulohaza bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Uning bunday ikki qutb o'rtasida harakat qilishi ijodiga o'ziga xos teranlik bag'ishlaydi. Tillaniso ijodiga xos bo'lgan asosiy jihat uning o'ziga xos uslubi va mavzulariga bo'lgan e'tiboridir. U, asosan, psixologik va sotsiologik tahlillarga asoslangan asarlar yaratgan. Uning ijodida shaxsiyat va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar,

ayolning ichki kurashlari va shaxsiy o'zgarishlari keng yoritilgan. Bu, ayniqsa, uning prozalarida aniq ko'rinadi. Yozuvchi ayolning ichki olamiga chuqur kirib, uning ruhiy holatini, hissiyotlarini va qarorlaridan kelib chiqadigan murakkabliklarni o'rganadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Nasriy asarlarida ayol qalbi, jamiyatdagi ayolning o'rni, shaxsiy iztiroblar va insonlar orasidagi sezgir bog'liqlikni badiiy-estetik darajada chuqur tahlil qiladi. Adiba yaratgan obrazlar o'zining poetik kuchi, ichki kuch va hayotga nisbatan teran falsafiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Tillanisoning nasri o'zbek an'anaviy prozasining nozikliklarini saqlagan holda, uni zamonaviy adabiy tafakkur, global motivlar va shaxsiy individualizm bilan boyitadi. Uning uslubida simvolizm, erkin ruhiyat, ayollik fenomenologiyasi va ekzistensial anglashuvlar keng uchraydi. Ayniqsa, "Sunbula" asari orqali u nafaqat ayol shaxsiyatini, balki jamiyat bilan ziddiyatga kirgan har qanday erkin individning ichki dunyosini ochishga harakat qiladi. Adibaning asarlarida so'z san'atiga estetik yondashuv, tilning badiiy imkoniyatlaridan keng foydalanish va asar orqali o'zini anglash istagi bosh omillar sifatida namoyon bo'ladi. Uning hikoyalari "To'zon", "Mayga hali bor...", "Yaratiqlar", "Hermina sindromi", "Ko'rpa", "Qabriston hikoyalari" turkumi va boshqalar o'zining yangicha nigohi, til uslubining tushunariligi, ko'tarilgan g'oyaning dolzarbligi bilan ajralib turadi. Xususan, "To'zon" hikoyasida ifodalanga oilaviy muhit tasviri chuqur tahlili bilan e'tiborga sazovor. Bilamizki, oilaviy muhit – inson ruhiyatini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biridir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ayniqsa, farzandlar hali ulg'aymagan, ong va qalblari kundalik voqealardan tez ta'sir olayotgan pallada, uying ichki totuvligi yoki aksincha, nizolari ularning butun hayotlarida iz qoldiradi. Nozimaning ko'zlari orqali tasvirlangan oilaviy ziddiyatlar – bu faqat bitta oilaning emas, balki jamiyatdagi minglab oilalarning yashirin, ammo og'riqli haqiqatidir. Qishning izg'irin kechasi, og'ir jubbalar, sokin yurishlar fonida kechayotgan tashqi harakatsizlik ichki dunyodagi kimsasizlik, eshituvchining yo'qligi faryod va zulm bilan qarama-qarshi turadi. Otasi ilk bora xotining qarindoshlariga iliqlik bildirgani, oddiygina mehrlil bir kechani butun oilaga shodlik sifatida his ettiradi. Ammo bu shodlik vaqtincha. Chunki bu kechikkan iliqlik ustiga yillar davomida to'plangan sovuq, befarqlik va hatto zo'ravonlik qor yog'dirib ulgurgan. Bolalarning, xususan Nozimaning ruhida bular ortidan yurakka tomib ketgan qizigan qo'rg'oshin kabi og'ir izlar qoladi. Ota-onaning janjali – ular uchun oddiy jarohat emas, balki toshga aylanayotgan, shafqatsizlikka aylanuvchi ichki og'riqdir.

**Natija.** Hikoya zamirida zo'ravonlikdan jabr ko'rayotgan ayol obrazi, ammo baribir oilani saqlab qolishga urinayotgan ona, va o'z sevgisini ifoda qilishga ojiz, g'azabga oson beriladigan, jamiyatda o'z o'rnini topolmaganday tuyuladigan erkak turgan murakkab manzara mavjud. Qiz farzand esa, o'z qalbida hali umidni saqlab, hali dadadan begonalikni his qilib, ikki qarama-qarshi kuch – sevgiga chanqoqlik va alamli kuzatuv o'rtasida mahkam siqilib qolgan. Atrofdagi voqealarga yosh qizaloq ko'zidan shunday izoh ham beriladi: "Nozima ba'zan otasi haqida nima deb o'ylashni bilmay qoladi: kuyov

degani shunaqa yov bo`larmikan, kattalar shunaqa deydiyu, yo otasi ortiqcha izzattalabmikan? Ha, topdi. Otasi onasining oilasini yomon ko`radi. Janjallarda xotining qarindoshlari o`rtaga tushadi-da. Janjallarning birida ko`ch-ko`ronini ko`tarib momosinikiga ketish oldi kichik tog`asi derazaga tosh otgandi” [2:89] . Bu asar orqali muallif nafaqat oilaviy portretni chizadi, balki har birimizga tanish bo`lgan “hech narsa ko`rmaganday yashash” balosiga ham ishora qiladi. Chunki jamiyatda eng ko`p uchraydigan og`riqlardan biri bu – unutmangandek ko`rinish, lekin unutmangandek yurish, lekin ichkaridan batamom kechira olmaslikdir. Hikoya mazmuni orqali muallif xulosa qilmaydi, o`rgatmaydi, balki ichimizdagi allaqachon mavjud bo`lgan hislarni uyg`otadi. Bu esa badiiy adabiyotning eng yuksak yutug`idir.

Keyingi “Mayga hali bor...” hikoyasi yanada og`irroq, yanada dolzarb mavzuni tahlilga tortadi. Hikoya bosh qahramoni yosh qizaloq holati, atrofdagi jamiyatning, hatto ota-onaning ma`lum bilim va ko`nikmalarni farzandiga bermasligi tufayli yuzaga kelgan og`ir holatni hikoya qiladi. Jamiyatda tarqalgan tabularga, ota-ona va farzand o`rtasidagi ko`rinmas devorga nisbatan tanqidiy yondoshilib, ularning yosh o`smirlar taqdiriga ta`sir qilishi mumkinligi, metalitet deya tiqishtiriladigan ba`zi eskilikka yo`g`rilgan odatlardan voz kechish kerakligi haqida tugal xulosalar yasalgan hikoyaning butun dardli, og`riqli nuqtasi yosh qizaloqning ojizona “Mayga hali bor” jumlasini bilan ifoda etiladi: “Ammo bular yetarli emas, chunki bir ikki kunda tuzalib, maktabga borishga to`g`ri keladi. Tuzalgan odamni uyda shunchaki yotqizib qo`yishmaydi. Maktabga bormaslik uchun jiddiy sabab kerak. Demak, hali “tuzalmasligi”i kerak. Bahor ham keldi. Ammo maygacha hali ikki oy bor” [3:56] . Hikoyada bosh qahramon – 12 yoshli qiz – ertalabki choy ichish paytida dugonasi Maqsuda tomonidan o`yin o`ynashga chaqiriladi. Bu oddiy voqea orqali muallif qizning kundalik hayotidagi mas`uliyatlari, oilaviy munosabatlari va o`smirlik davridagi ichki kechinmalarini ochib beradi. Qizning buvasi bilan bo`lgan munosabatlari, onasining mehnatkashligi va otasining qat`iyati orqali oilaviy muhit tasvirlanadi. Qizning o`zini tutishi, mas`uliyatlari va orzulari orqali o`smirlik davrining murakkabliklari ochiqdan. “Tekshiruv”ga borishini eshitgan yosh qizchanning noto`g`ri tushunish, mish-mishlar tufayli paydo bo`lgan turli qo`rquvlari erkaklar jamiyati belgilagan qonunlarning naqadar bir tomonlamaligi haqida yana bir bor o`ylashga chorlaydi: “Latifa o`zi hardamxayol edi, battar parishonlandi. Uyidaku unchalik sezilmadi, shundog`am dovdorab xayol surib yuradi. Maktabda darrov sezildi. Maktabda yaxshi o`qiydi, muallimlariga erkatoiy, uyidan farqli maktabda o`zini ko`rsatishni yaxshi ko`radi.

Hikoyaning eng ta`sirli bobi ikkinchisi bo`lsa, ajab emas. Unda yosh bir qizning ichki iztirobi, qo`rquv va hayot haqida shakllanayotgan og`riqli tushunchalari aks ettirilgan. Qiz somonxonaga kirib, ip va chelak orqali o`zini osishga tayyorgarlik ko`radi – bu harakat uning ichki ruhiy bosimi, qo`rquvi va kelajakka bo`lgan umidsizligidan darak beradi. Voqeaning fonida esa jamiyatning ayolga, ayniqsa nomus atrofidagi qat`iy va shafqatsiz qarashlari, shuningdek, “birinchi kecha”ga bog`langan ijtimoiy bosim, sha`n va isnod kabi

tushunchalar ayanchli tarzda ochib beriladi. Parchada tilga olingan ayolning hayoti – 20 yil birga yashagan eri tomonidan “nomus” bahonasida haydalihi, farzandlarining yuz o‘girishlari, ayolning iztirobi va qishloqning bu holatni “odatiy yangilik” sifatida muhokama qilishi – bular barchasi qizga chuqur ta’sir qiladi. U kinolarda ko‘rgan syujet bilan rostdagi hayotning dahshatli o‘xshashligini ko‘radi. Shu orqali voqea badiiy matndan ko‘ra hujjatli haqiqatdek tuyuladi. Qizning o‘z joniga qasd qilishga urinishidagi asosiy sabab – kelajakka bo‘lgan qo‘rquv, atrofdagi zo‘ravon ijtimoiy me‘yorlar va ularga qarshi chora qila olmaslik hissi. Uning ichki iztiroblari – “nega katta bo‘lish kerak?”, “nega sha’nimga dog‘ tushmasligi kerak?”, “nega xudo javob bermaydi?” kabi savollar orqali ifodalanadi. Bu savollar nafaqat qizning, balki minglab ayollarning ichki faryodi bo‘lishi mumkin. Asarda qizning ammasi bilan bo‘lgan suhbat esa bir oz umid uchqunini keltiradi. Ammasining muloyim, ammo qat’iy ohangi, “jinni bo‘ldingmi, qizim” degan gapi mehr bilan aytiladi, bu esa qizning jinoyat qilgandek o‘zini aybdor his qilishiga sabab bo‘ladi. Ammo bu achchiq haqiqatdan yana bir bor ko‘rinadiki, ayollarga nisbatan bo‘lgan ijtimoiy bosim, sha’n tushunchasining noto‘g‘ri talqini ularni eng og‘ir, eng qo‘rqinchli qarorlarga undaydi.

Umuman olganda, bu parcha juda kuchli ijtimoiy tanqidni o‘z ichiga olgan. Unda patriarxal tuzum, ayollar sha’ni bilan bog‘liq stereotiplar, ruhiy zo‘ravonlik va jamiyatning loqaydligi fosh etiladi. U real voqelik va badiiyatni birlashtirgan, hissiyotlarga boy va ijtimoiy ahamiyati yuqori bir asar bo‘la oladi. Hikoyada qizning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, orzulari va jamiyatdagi o‘rnini anglash jarayoni tasvirlanadi. Uning dugonalari bilan bo‘lgan munosabatlari, o‘yinlar va bo‘yanish tajribalari orqali o‘smirlik davrining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Qizning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, orzulari va jamiyatdagi o‘rnini anglash jarayoni tasvirlanadi. Muallif o‘smirlik davridagi qizlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o‘rni va oilaviy munosabatlarini chuqur yoritadi. Asar orqali o‘quvchi o‘smirlik davrining murakkabliklari, orzulari va jamiyatdagi bosimlar haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladi. Hikoyaning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallif o‘smirlik davridagi qizlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi o‘rni va oilaviy munosabatlarini chuqur yoritadi. Asar orqali o‘quvchi o‘smirlik davrining murakkabliklari, orzulari va jamiyatdagi bosimlar haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘ladi.

Turkumning o‘ninchi, so‘nggi hikoyasi esa biroz o‘zgacharoq. Unda ham bolalik xotiralari, essega o‘xshashlik ustun tursa-da, hikoyadagi voqealar tizmasi qolgan barcha hikoyalardan ko‘ra pishiqroqdek tuyuladi. Hikoya bolalik xotiralariga boy bo‘lib, muallifning juda yaqin kishiga bo‘lgan murakkab hissiyotlarini tasvirlaydi. Munosabatlar yumshoq, sevgi bilan to‘la, ammo ichki istaklar va hayotiy o‘zgarishlar bilan yuksak tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi. Roviyning boshqa kishini qanday ko‘rganligi, ular o‘rtasidagi muloqot va vaqt o‘tishi bilan yuzaga kelgan hissiy o‘zgarishlar batafsil bayon etilgan. Gullar, ayniqsa qizil atirgulning tasviri, muhabbatni anglatadi, shu bilan birga, munosabatlarning o‘zgarishi – bolalikning pokiza tuyg‘ularidan, dunyoni anglashgacha

bo‘lgan bosqichda – xotira va nostalgiya o‘rtasidagi nozik aloqani ko‘rsatadi. Qizning kurashga qo‘shilishi va muallifning o‘zini boshqa yo‘nalishlarda topishidagi o‘zgarishlar hikoyaning achchiq va shirin hissiyotlar bilan to‘ldirilgan ekanligidan darakdir.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Tillaniso nasrining o‘ziga xos jihatlari sifatida bir qancha jihatlarni keltirish mumkin. Ulardan biri va eng birinchi ko‘zga tashlanadigani Tillanisoda g‘arb tafakkuri, XX asr faylasuflari g‘oyalari, Psixoanaliz fani otasi Freyd, Yunglar fikrlaridan ta’sirlanish kuchliligi. Ayni shu sabab tufayli, nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balkim, jahonning istalgan burchagidagi jahon adabiyoti muxlisi o‘qib, tushuna oladigan, anglab, dardini his eta biladigan asarlar aynan Tillaniso ijodida ko‘p uchraydi. Bu uning ijodiga ahamiyatini, ta’sir ko‘lamini yanada kengaytirishi shubhasiz.

Yana bir o‘ziga xos jihat Amerika adabiyotidagi “Sindirilgan avlod”ga o‘xshashlik. Yuqorida sanab o‘tilgan “Sunbula” asari ayni shu adabiyot bilan hamnafas. Asarda ko‘tarilgan mavzular o‘zbek jamiyati uchun odatda tabu deb qaralib kelishi, aslida jamiyatda munosabatning o‘zgarishi faqat ijobiy bo‘lishi tahlillar yordamida ko‘rinib turadi. “Sindirilgan avlod”ning isyonkorligi, jamiyat qo‘ygan to‘siqlarni aylanib ham emas, buzib o‘tishga qodirligi Tillaniso ijodiga ham xos. Bu o‘xshashliklarni tahlil qilib, qiyoslash orqali asar ko‘proq kitobxonlarga yetib borishini ta’minlash adabiyotshunoslari uchun ustuvor vazifalardandir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва ҳаёл ҳақиқати. “Шарқ юлдузи” ж., № 4, 2011. 142-бет.
2. Умиров Ҳ. Адабий ижод асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 83.
3. Do‘stmuhammad X. Hikoyalarda hayot va xayol haqiqati /Sharq yulduzi. № 4, 2011. 142-bet.
4. G‘olima M. Turonning alp qizlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – B.5.
5. Normatov U. Ona sha’niga qasida // Yoshlik, 2010. № 5. –B. 7.
6. Isomiddinov Z. Ikki ayol // O‘zbek adabiy tanqidi. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2011. – B. 375.
7. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. –B. 190.